



QADIR HABIB HIKOYALARINING G'OYAVIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI

Kibriyo Sultonova

Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7229082>

Biz badiiy asar tahliliga kirishar ekanmiz, avvalo, tasvirlanayotgan va badiiy idrok etilayotgan narsani farqlay olishimiz zarur. Negaki, adabiy asarlarda bu ikkisi doim ham aynan emas: bir narsa tasvirlangani holda boshqa narsa idrok etilishi mumkin. Shu bois ham badiiy asar mazmuni unda tasvirlanayotgan hamda idrok etilayotgan narsalar birligida tushuniladi. Qadir Habib asarlarida ham biz tasvirlanayotgan va idrok etilayotgan narsalar aynan bir xil bo'lmagan holatlarga duch kelamiz. Bu o'z navbatida yozuvchi mahoratidan dalolat beradi. Masalan, "مرغابی چوچه" [chuchaye murG'obi] - "O'rdak bolasi" hikoyasidagi tasvirlanayotgan vaziyat, personajlarning holatlaridan tashqari kitobxonning o'zi idrok etib, qissadan hissa chiqarishi kerak bo'lgan o'rinlar ham mavjud.

Asar yozuvchi tomonidan juda mahorat bilan yozilgan bo'lib, asarda oddiy afG'on xalqining murakkab turmush tarzi tasvirlangan. Bu asarni o'qigano'quvchi bir jihatdan hikoya qahramonlariga rahmi kelib yuragi o'ksinsa, bir tomondan o'zi yashayotgan zamondan, shart-sharoitlardan mamnunlik, shukronalik hissini tuyadi.

Asarda suv olish uchun borgan opa-uka ko'lda suzib yurgan o'rdak bolalariga qiziqib qolishadi. Aniqrog'i bosh qahramonimiz Nabijon uchun o'rdak bolalari hayratomus tabiat ne'mati, ko'nglini xushnud etadigan bir mo'jizadek tuyuladi. U qanday qilib bo'lmasin shu o'rdak bolalarini o'zi bilan olib ketishni ich-ichidan xohlaydi. O'rdakning o'zi yettita bolasi bo'lgan va bulardan faqat ikkitasi tirik qolgan bo'ladi. O'rdak bolalari juda ham kichkina, ko'zni quvnatadigan ediki, Nabijon ularni judaham yoqtirib qoladi. Opasining tergoviga qaramasdan o'rdak bolalaridan birini o'zining suv idishiga solib oladi. Shom yaqinlashayotganligi sababli ular yugurib-yugurib uylariga borishadi. Yozuvchi tomonidan ularning uylari juda ham xaroba holatda tasvirlangan. Qo'shnining hovlisi bilan o'z uylari o'rtasidagi devorning qulab tushgani, devorlarning, uy tomlarining eskirib ketganligi tasviri, yiqilay deb turgan tandirxonaning tasviri orqali biz ularning juda ham nochor ahvolda hayot kechirishlarini bilib olishimiz mumkin.

میکرد شکوه خانه دیوار و در به باشد مخاطبش کسی آنکه بی ها دیوانه مانند پدرم

کنم ایلا مه باید را خانه میشه چیه مه خانی سر مردم دیوال...زمانه هی هی ببینین انصافه ببینین ره مسلمانی-

آرام زانو کنده دو روی یی گوشه در مامایم میکشید و اف میداد شور دلتنگی علامت به را سرش و

سرش پشت کرده حلقه هم به را دستش دو و زد تکیه دیوار به پدرم شد مشغول شترنجی های تار با و نشست





shnide bam balay az ma digar himsayeh bashi meemar radiyoy avaz. gisht khireh me'lomy na naqqeh beh cherty v ghadast bud sookhteh ma radiyoy keh rozy az. mikard bakhsh ra «niyest asan keh رفتن و کندن دل آشیان از» ahng v mishd shan radiyoy akbar سرویس نشر هنگام keh bud خواسته آنها از نداشت اخبار شنیدن برای یی وسیله دیگر پدرم v کند بلند را.

“ Otam devonalarga o'xshab go'yo ro'parasida kimdir bordek uy devorlariga va eshiklariga qarab shikoyat qilar edi:

-Musulmonchilikni qarang! Insofni qarang! Eh zamon! Odamlarning devori mani uyim tarafga qulab tushgani uchun man uni tiklashim kerak. – Boshini charchagandek qimirlatardi vauf tortardi.

Amakim bir burchakdagi o'rindiqqa tizzalab sekin o'tirdi va shaxmat o'ynashda davom etdi. Otam devorga suyandi va ikki qo'lini birlashtirib boshini orqasiga o'tkazdi va noma'lum bir nuqtaga tikildi. Tomdan ishchi bo'lib ishlaydigan qo'shnimiz radiosining ovozi eshitilardi. “Vatandan dil uzib ketish oson emas” degan qo'shiq qo'yilgan edi. Bizning radiomiz kuygan kundan buyon otam yangiliklarni eshita olmayotgan edi. Shuning uchun qo'shnidan yangiliklar berayotgan vaqtda radiosini baland qilishini so'ragan edi.”

Ushbu jumalarda tasvirlangan holat orqali ham biz yozuvchining mahoratiga yana bir bor guvoh bo'lishimiz mumkin.

Qadir Habib “O'rdak bolasi” hikoyasida afg'on xalqining milliy koloritini, og'ir turmush sharoitini ko'rsata olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuqoridagi tasvirda biz afg'on millatiga xos bo'lgan vatanparvarlik tuyg'usi tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. Har bir afg'on millatiga mansub bo'lgan shaxs qanday sharoitda yashashidan qat'iy nazar o'z yurtini sevadi, Vatani uchun jonini fido qilishga tayyor. Jumladan, hikoyamiz qahramonlari og'ir turmush sharoitiga qaramasdan yurtida bo'layotgan yangiliklarga befarq emas. Ularda yangi radio sotib olishga sharoiti yo'q. Shuning uchun qo'shnisidan yangiliklar bo'layotgan vaqtda radio ovozini balandlatib qo'yishini iltimos qiladi. Lekin o'zining uyida mojarolar va qiyinchiliklar tufayli aziyat chekayotgan oilasi boshqa uyga ketishga majbur bo'lyapti. Qo'shnisi bilan o'rtadagi devor bularning uyi tarafga qulaganligi tufayli qo'shnisi devorni bularga tiklattirmoqchi.

Yuqoridagi misolda tasvirlangan radioning ovozi ham afg'on millatiga xos vatanparvarlikni kuylaydi chamamda. Radiodan eshitilayotgan vatan madhiga oid musiqa, uning baland ovozda eshitalayotganligi tasviri orqali yozuvchi faqat afg'on millatigagina xos bo'lgan o'zgacha vatanparvarlikni ko'rsatadi. Chunki, afg'on xalqining vataniga bo'lgan muhabbati boshqa xalqlarga qaraganda farq qiladi. Ular o'z vatanlarini o'zgacha muhabbat, o'zgacha tuyg'u bilan sevishadi.

Bir tomondan Afg'onistondagi siyosiy va ijtimoiy qiyinchiliklardan aziyat





chekishayotganlaridan xo'rlanib sevishsa, bir tomondan har qanday vaziyatda ham Vatanni tark eta olmayotganlaridan siqilib, o'z diyorlariga achinib, uni bor vujudlari bilan himoya qilishga shay bo'lib sevishadi. Ushbu qimmatli tuyg'u faqatgina afg'on millatiga xosligi esa yozuvchi tomonidan mahorat bilan ifodalangan.

Nabijon va opasi uyga kelishgandan so'ng, o'rdak bolasini qayerga yashirish to'g'risida ancha bosh qotirishadi. Nabijonning opasi Halimao'rdak bolasini tandirxonaga yashirishni maslahat beradi. Ular bu ishni amalga oshirishadi. Uyda esa og'ir vaziyat edi. Devor qulab tushganligi sababli Nabijonlarning oilasi uyini tashlab ketishi kerak edi. Uydagi vaziyat shunchalik og'ir ediki, Nabijonning qalbini xushnud etadigan yagona narsa bu o'sha o'rdak bolasi edi. U har zamonda bir o'rdak bolasidan xabar olib ketardi.

خواهرم و مادر. می‌کردم توجه زیاد می‌گذشت اطرافم در آنچه به بودم مرغابی فکر به من. بود شده تاریک شام
وارد هم دنبال همه. نمی‌خشکید شان اشک چشمه که بودند فهمیده آنان گپهای از چیزی شاید. بودند دروازه پشت
بود گرفته فرا انگیزی غم سکوت را خانه. شدیم آتاق.

“ Kech tushayotgan edi. Mening xayolim o'rdakda edi. Shu bilan birga atrofimda bo'layotgan voqealarga ham e'tibor berardim. Oyim va opam darvozaning oldida edilar. Xuddi ularning gaplaridan nimadir tushunayotgandek, ko'zlarining yoshi to'xtamasdi. Hammamiz birin-ketin xonaga kirdik. Uyimizda G' am-anduh hukmronlik qilayotgan edi.”

Yuqoridagi misolda oiladagi mushkul vaziyatga tushib qolgan insonlar tasvirlangan. Biz yuqoridagi misolni keltirish bilan oilaviy muammolardan charchagan bosh qahramonimizning o'sha o'rdak bilan ovunishini ko'rsatish bilan bir qatorda afg'on ayollarining qandayligini ham tasvirlamoqchi bo'ldik. Mushkul xolatga tushib qolgan oila azolari uyni tark etishga majbur bo'lishyapti. Qadir Habib esa shunday og'ir vaziyatlarda afg'on xalqining o'zini qanday qo'lga olishini, faqatgina afg'onlarga xos bo'lgan milliy koloritetni ochib bermoqchi. Xususan, Nabijonning oyisi va opasi faqat yig'lash bilan o'zlarini ovutyaptilar. Lekin ularga yordam qo'lini cho'zgan qarindoshlari tufayli qiyinchiliklarni yengishda o'zlarida sabr va kuch topa oladilar. Ushbu hikoyadagi yana bir ayol obrazi amakining rafiqasi hisoblanadi. Bu ayol uylariga ko'chib kelgan mehmonlareni ochiq chehra bilan kutib oladi. Ularni ko'nglini ko'tarib, dalda bo'ladi. Ushbu ayollar va bolalar obrazlarining hikoyada katta ahamiyati bor bo'lib, Qadir Habib ular orqali afg'on xalqiga xos bo'lgan insonparvarlik tuyg'ularini ko'rsatib berishga harakat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Azaldan, afg'on ayollari har doim qiyinchiliklarga uchraydigan, turmush o'rtog'lari tomonidan xo'rlanadigan ayollar sifatida yodga olinadi. Lekin Qadir





Habib hikoyalaridagi ayollar oilada, hayotda o'z o'rniga ega, mehribon, bolalar tarbiyasida va boshqa oilaviy masalalarda o'z fikrini bemalol bildiradigan erkin shaxslar sifatida tasvirlanadi. Bu holat ham Qadir Habibning o'zgacha mahoratidan darak beradi. U o'z millatini har qanaqasiga ijobiy tomonlarini ko'rsatib, ko'kka ko'tarishga harakat qiladi. Vatandoshlarini har doim qo'llab quvvatlaydi.


Nabijonning esa fikr-u xayoli o'sha o'rdakda edi. Xuddiki yomon tush korgan odam uyg'onib tushi ekanligini bilib qanday quvonsa, Nabijon ham hayotida o'rdak paydo bo'lganidan buyon shunday xursand edi. U o'zini o'sha o'rdak bilan ovutardi. Ularning oilasi uyni tark etishga majbur bo'layotganligi sababli Nabijonning amakisi ularni o'z uyiga yashashga taklif etadi. Ukasining og'ir kunida uni qo'llab quvvatlab, o'z uyidan boshpana beradi. Bir ikki kun ichida ular amakisining uyiga ko'chib o'tishadi. Ular amakisinikiga ko'chib o'tgan kunlari Nabijon o'rdak bolasini qanday qilib amakisinikiga olib ketish haqida qayg'uradi.

دو که مامایم خانه به تارسیدن آمد شکسته و آلود غبار نظرم در چیز همه اشکم پرده پس از و کرد تنگی دلم
نرفتم بیرون مرغابی چوچه فکر از هم یی لحظه داشت فاصله ما خانه با کوچه
va ko'z yoshlarim pardasi ortida hamma narsa ko'zinga qayG' uli ko'rindi.
Bizning uyimizdan ikki ko'cha narida turadigan amakimning uyiga
ko'chayotganimizda ham bir lahza bo'lsinki, o'rdak xayolimdan ketmadi"

Murg'ak va beg'ubor qalb egasining ushbu satrlarga jo bo'lgan o'y-xayollari insonga naqadar ta'sir qiladi. Yuqoridagi misolning o'zida Qadir Habib bosh qahramonimiz to'g'risidagi bir qancha fikrlarni beradi. Nabijon, amakisinikiga ko'chib o'tar ekan, faqatgina shu bitta o'rdak bolasini olib keta olmayotganligi uni xafa qiladi. Lekin, qo'rquv hissi tufaylimi yoki boshqa sababdanmi otonasiga buni bildirmaydi. Afg'on millatining bu jajji vakili birgina o'sha o'rdak bilan ovunib, xursand bo'lib yurganligi insonni naqadar o'yga toldiradi. Axir, hozirgi zamonaviy texnologiyalar davrida boshqa mamlakatlarda, xususan, o'zimizning yurtimizda ham yosh bolalar uchun qanchadan-qancha imkoniyatlar, turli-tuman o'yinchoqlar, ko'ngil ochar maydonchalar bor. Lekin afg'on xalqining imkoniyatlari cheklanganligi ushbu hikoyamiz qahramonlari tushgan vaziyat orqali ham yaqqol ko'rinib turibdi. Bu kitobxonni bir tomondan rahmini keltirsa, boshqa tomondan unda shukronalik hissini uyg'otadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. 3-е. изд., испр. и доп. – М.: Академ. проект, 2004. – 991 с.
2. Колесов В.В. Философия русского слова. – СПб.: ЮНА, 2002. – 444 с.





3. Yarashova N. J. The lights of jewels of turkic language in the works of Alisher Navoi //Theoretical & Applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука.-2021. – 2021. – Т. 9. – С. 659-661.
4. Jumayevna Y. N. Linguo culture logical features of metaphors in children's literature (On the example of khudayberdi tokhtabayev's creative work) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2019. – Т. 9. – №. 4. – С. 139-145.
5. Jumaevna Y. N. Occupation of the child's personal mental status in dialogual speech //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 5. – С. 405-408.
6. Jumaevna N. Y. Development of linguocreative abilities in children's speech //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 3. – С. 5-8.
7. Norboevna Y. R., Jumaevna Y. N. Pleonastic Application Of Synonyms In Alisher Navoi's Works //Psychology and Education Journal. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 10-17.
8. Jumaevna N. Y. Psychological Characteristics of Preschool Children. – 2022.
9. Jumaevna N. Y. Metaphor in children's prose as a linguoculturological phenomenon //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 18-22.
10. Yusubova R. N. Lingupoetical possibilities of coloring lexemals synonymy against language preferences //湖南大学学报 (自然科学版). – 2021. – Т. 48. – №. 11.
11. Norboyevna Y. R. Structural-semantic, national-cultural features of words in uzbek language //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 5. – С. 409-414.
12. Юсубова Р. Жаҳон тилшунослигида тежамлиликнинг ўрганилиши //Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 2.
13. Юсубова Р. Н. и др. Разные принципы в поэтических текстах //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2010. – №. 3. – С. 174-176.

